



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**



**KICHRAYTIRISH QO‘SHIMCHALARINING NUTQDAGI  
AHAMIYATI**  
**THE IMPORTANCE OF DIMINUTIVE SUFFIXES IN SPEECH**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/UGEW4806](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/UGEW4806)

*Xayrullayeva Ra’no Luqmon qizi*  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch-doktoranti  
[xayrullayevvarano43@gmail.com](mailto:xayrullayevvarano43@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichraytirish ma’nosining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Kichraytirish-erkalash ma’nosini yuzaga chiqarishning eng keng tarqalgan usuli haqida so‘z boradi. Kichraytirishni hosil qiluvchi grammatik shakllarga misollar keltirilgan. Kichraytirish-erkalash shakllarining nutq madaniyatida muhim roli, insonlar o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlikni kuchaytirishi, iliqlik va samimiyat ifodalashi, nutqni yumshatish kabi funksiyalarni bajarishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** grammatik vosita, shakl yasovchi qo‘shimcha, nutq madaniyati, nutqiy vaziyat, shaxs bildiruvchi otlar, narsa otlari, qo‘shimcha ma’no, kesatish semasi, kamsitish semasi, kichik hajm, kichraytirish ma’no, erkalash ma’no, samimiy ohang, yangi leksik ma’no, hissiy-emotsional ifodalar.

**Annotation.** This article analyzes the characteristics of expressing diminutive meaning. It discusses the most common method of conveying diminutive-affectionate meanings. Examples of grammatical forms that produce diminutives are provided. The article highlights the important role of diminutive-affectionate forms in speech culture, their function in strengthening emotional bonds between people, expressing warmth and sincerity, and softening speech.

**Keywords:** grammatical tool, word-forming affix, speech culture, speech situation, nouns denoting persons and objects, additional meaning, irony seme, derogatory seme, small size, diminutive meaning, affectionate meaning, sincere tone, new lexical meaning, emotional-expressive expressions.

O‘zbek tilshunosligida otlarning kichraytirish-erkalash shakli va uning uslubiy tarafdin farqlanuvchi jihatlari, shuningdek, ushbu shakl yasovchilarning qo‘llanish doirasi va tarixiy o‘zagi haqida ilmiy o‘rganilishlar nisbatan kamroq uchraydi. Ma’lumki, kichraytirish-erkalash shakllari otlarda leksik ma’noga qo‘shimcha ma’no yuklaydi, bu ma’no me’yordagi so‘zga nisbatan kichiklikni ifodalagnligi uchun o‘zbek tildagi norma, ya’ni paradigma qolipida o‘rganilishi til me’yorlariga mos keladi. O‘zbek tilida kichraytirish ma’nosini hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bu shakl yasovchi qo‘shimchalardan foydalanishdir. Eng ko‘p uchraydigan kichraytirish qo‘shimchalari quyidagilardan iborat: -cha, -



choq, -chak, -ak, -gina, -qina, -kina, -voy, -boy, -qay, -kay [Рахматуллаев, 2010: 56]. Ushbu qo‘shimchalar so‘zga qo‘shilganida, unga kichik, yumshoq yoki yoqimli, erkalash ohangidagi ma’no yuklaydi. O‘zbek tilshunosligi me’yorlarida -cha shakl yasovchi qo‘shimcha shaxs bildiruvchi otlardan boshqa otlarga qo‘shilganda odatda kichraytirish ma’nosini beradi: tog‘acha, ukacha, jiyancha, nevaracha, qizcha, yigitcha. Shaxs nomlariga qo‘shilganda esa kamsitish, kesatish semasini anglatadi: Ko‘l yoqlab o‘zi ozg‘in, ko‘p gapiradigan Akbarcha mayda qadamlar bilan kelardi. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, narsa otlariga qo‘shilganda ham kichraytirish ma’nosini beradi: hovuzcha, qushcha, uycha, baliqcha kabi. Misol uchun, U – [suv] qaynama beton hovuzchalar orqali yerosti quvurlariga quyilib, dala yoqalab yugura ketdi. (Sh. G‘ulomov, Yorqin ufqlar) Ba’zi so‘zlar tarkibida – cha affiksi kichraytirish ma’nosini yo‘qotib, so‘z yasash xususiyatiga o‘tgan va omonimlik hosil qilgan: sholcha, bog‘cha, qizilcha. Jundan to‘qilgan palos. Himmatga «Qani, o‘tir!» dedi oshpaz, yozib qo‘ygan sholchani ko‘rsatib.

Kichraytirish-erkalash shakllari insonlar o‘rtasidagi muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, nutq madaniyatida muhim rol o‘ynaydi. Bu shakllar insonlar o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlikni kuchaytirish, iliqlik va samimiyat ifodalash, nutqni yumshatish kabi funksiyalarni bajaradi. Kichraytirish-erkalash so‘zlari turli vaziyatlarda qo‘llanadi va ularning muloqot samaradorligiga ta’siri katta.

Kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari odatda mehribonlik va iliqlik ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday shakllar insonlar o‘rtasidagi munosabatni yumshatib, yaqinlik va do‘stona kayfiyat yaratadi. Jumladan, ota-onalar farzandlariga “bolajonim”, “qizaloq”, “o‘g‘ilcham” kabi murojaat qilib, ularga bo‘lgan mehrini ifodalaydi. Xuddi shunday, turmush o‘rtoqlar, do‘stlar va yaqin qarindoshlar o‘zaro kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari orqali iliq muhit yaratadi.

Nutqda kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari ohang va hissiyotlarni boyitishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, “kitob” va “kitobcha” so‘zlari bir xil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lsa-da, “kitobcha” shakli yumshoqroq va mehr bilan ishlatilgan nutqiy birlik sifatida qabul qilinadi. Ayniqsa, bolalar bilan suhbatda bunday so‘zlar ularning e’tiborini jalb qilish va nutqiy estetikani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari muloqot jarayonida insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini yaqinlashtiradi. Masalan, oilada, do‘stlar davrasida yoki ish muhitida kichraytirish shakllari ishlatilsa, rasmiylik yumshab, odamlar o‘zlarini erkinroq his qilishadi. Bu esa muloqotni soddalashtirib, insonlar o‘rtasidagi tushunishni yaxshilaydi.

Nutq madaniyati doirasida kichraytirish-erkalash shakllaridan foydalanish muvofiqlik tamoyiliga bog‘liq. Ularni ishlatishda vaziyat, suhbatdoshlarga bo‘lgan hurmat, yosh va rasmiylik darajasi hisobga olinishi kerak. Rasmiy nutqda yoki jiddiy muloqotlarda ortiqcha kichraytirish-erkalash shakllaridan foydalanish nomaqbul bo‘lishi mumkin. Masalan, ilmiy anjuman yoki ishbilarmonlik



uchrashuvida norasmiy uslubdagi “kitobcha”, “savolcha”, “ishcham” kabi shakllar noo‘rin bo‘lishi mumkin.

Kichraytirish-erkalash shakllari ba‘zan nafaqat mehribonlikni, balki kinoya, hazil yoki istehzoni ham ifodalashi mumkin. Masalan, “yigitvoy” yoki “shoircham” so‘zlari ba‘zan hazil yoki ozgina tanqidiy ma‘noda ham ishlatilishi mumkin. Bu kabi so‘zlar nutqiy vaziyatga qarab turlicha ta‘sir qilishi mumkin, shuning uchun ularning ishlatilishida ehtiyotkorlik talab etiladi.

O‘zbek xalqining mehribonlik, oilaviy qadriyatlar va jamoat munosabatlariga ahamiyat berishi nutqda kichraytirish-erkalashni keng tarqalishini talab qiladi. Bu tilning madaniy kodlarini aks ettiradi. Kichraytirish shakli quyidagi affikslar orqali yasaladi: 1) *-cha* qo‘shimchasi bilan. Bu affiks shaxs va narsalarning kichik ekanligini bildiradi: *yigitcha, daftarcha, qushcha, kitobcha, uycha* kabi. Masalan: *Shoir daftarchasini tizzasiga qo‘yib tez-tez yozar edi. (A.Qahhor). Yarim soat o‘tar-o‘tmas ular talabalar shaharchasiga kirib borishdi. (O‘. Umarbekov).* Bu affiks shaxs bildirgan otlarga qo‘shilganda, kichraytirish ma‘nosidan tashqari, erkalash yoki kamsitish ma‘nosini ham ifodalaydi. Masalan: *«Qani bo‘lmasa, tingla, o‘g‘ilcha», - deydi chol va yo‘talib tarixini boshlaydi. (Oybek). Luqmonchanning atrofida suhbat, bahs davom etardi. (A.Muxtor). Bo, muncha noz qilmasang, otincha?! (H.G‘ulom). Ichkariga kiring, anavi yetimcha qizimizni o‘ldirib qo‘yay deyapti. (Mirmuhsin).* *-cha* qo‘shimchasi olgan so‘zlar ba‘zan kichraytirish ma‘nosini yo‘qotib, semantik o‘zgarish natijasida yangi leksik ma‘no bildirishi ham mumkin: *qalamcha* (payvand va ekish uchun o‘simlikdan kesib olingan novda), *naycha* (paxta egatiga suv quyish uchun ishlatiladigan asbob yoki to‘qimachilik asbobi), *qizilcha* (sabzavot), *ko‘kcha* (qovun turi) kabi. Bunday hollarda so‘z o‘zining dastlabki ma‘nosini yo‘qotadi, affiks so‘zning asosidan ajralmas holatga keladi. Masalan: *Nafisa opa ilgari bolalar bog‘chasida murabbiya bo‘lib ishlardi. (Mirmuhsin). Abdulla muzdek beqasam ko‘rpacha ustiga cho‘zildi. (O‘.Umarbekov). Bu yerning bola-chaqasi tili chiqib, avval bilgan so‘zi - arqoq bilan tarozu, naycha bila moxi. (A.Muxtor). Patnis ko‘kcha va shakarpalak kosalari bilan to‘la edi. (M.Ismoilij); 2) *-choq, -chak, -chiq* qo‘shimchalari bilan. Bu affiks har turli so‘zlarga qo‘shilib kichraytirish, shuningdek, erkalash ma‘nolarini ifodalaydi: *toychoq, qozichoq, qulunchaq, kelinchak, tugunchak, qopchiq* kabi. Masalan: *Quloqlarning oqi va oyoqchalarining olasi o‘zlariga juda yarashgan qo‘zichoqlar chakmon ustida jimgina yotishar edi. (P.Qodirov). Kelinchak visolin kutgan yigitday, Sharafli ayyomga xalqim muntazir. (G‘.G‘ulom). Suvonjon ertasiga va‘dalashgan vaqtda yetib keldi. Uning orqasida qopchiq, qo‘lida po‘stin, yelkasida miltiq bor edi. (S.Anorboyev).* Izoh: *qopchiq* so‘zida *-chiq* qo‘shimchasining ma‘nosi ancha kuchsizlangan.*

Til doimiy ravishda o‘zgarib, rivojlanib boradigan tirik tizim hisoblanadi. Undagi so‘z shakllari va semantik xususiyatlar jamiyat ehtiyojlariga, muloqot jarayoniga va madaniy o‘zgarishlarga bog‘liq holda rivojlanadi. Kichraytirish-erkalash shakllari ham til taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi va uning so‘z boyligi,



ta’sirchanligi hamda nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Kichraytirish-erkalash shakllari tilning lug‘aviy boyligini oshiruvchi vositalardan biri hisoblanib nutqning og‘zaki va yozma shakllarida ham namoyon bo‘lib boradi. Ular yangi so‘zlar va variantlar hosil qilishga yordam beradi. Masalan, “bola” so‘zidan hosil qilingan “bolajon”, “bolacha”, “bolakay”, “bolam” kabi shakllar til imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu jarayon tilning morfologik va semantik jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi. Kichraytirish-erkalash shakllari nutqning ta’sirchanligini oshirib, so‘zga o‘ziga xos ruhiy va hissiy tus beradi. Masalan, “uy” va “uycham” so‘zlari o‘zaro ma’nodosh bo‘lsa-da, ikkinchisi ko‘proq iliqlik, mehr va yaqinlik hissini ifodalaydi. Bu kabi shakllar she’riy va badiiy nutqda, shuningdek, og‘zaki va yozma adabiyotda keng qo‘llaniladi. Nutqda kichraytirish-erkalash shakllarining qo‘llanilishi bolalar nutqining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik yoshdagi bolalar odatda sodda va tushunarli so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonida ularning kichraytirish shakllaridan foydalanadilar. Masalan, “it” so‘zi o‘rniga “itjon”, “mushuk” o‘rniga “mushukcha”, „quyon” o‘rniga „quyonvoy” deyishlari kuzatiladi. Bu jarayon bolaning lug‘at boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Qolaversa bu shakllar orqali nutqda muloqot madaniyatini shakllantirib, muloqot jarayonida mehribonlik va samimiyat hissini oshiradi. Rasmiy nutqda bunday shakllar kamroq ishlatilsa-da, og‘zaki nutqda va norasmiy muloqotda ularning roli katta. Masalan, “opajon”, “ukajon”, “do‘stvoy”, „o‘rtoqjon” kabi shakllar insonlar orasidagi iliq munosabatni ta’kidlashga yordam beradi.

Nutqimizning turli shevalarida kichraytirish-erkalash shakllari o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, ba’zi hududlarda “otam” so‘zi “otajon” yoki “otaxan” shaklida ishlatiladi. Bu jarayon tilning dialektal xilma-xilligini saqlash va milliy madaniyatni boyitishga xizmat qiladi.

Kichraytirish morfemalari leksemaning baho semasini ifodalaydi. Masalan, -cha (qushcha– kabi), -gina (qizginam kabi), -jon (otajonim kabi), -chak, -choq morfemalari (kelinchak–, qo‘zichoq– kabi). Bu morfemalar ijobiy munosabat ifodalashga xizmat qiladi [Rahmatulloyev, 2006: 51]. Badiiy asar nutqida kichraytirish-erkalash shakllari qahramon xarakterini ochishda, tasvirlarni jonlantirishda va asarga samimiy ruh bag‘ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi (ertaklar, dostonlar) va zamonaviy adabiyotda bu shakllar keng qo‘llaniladi. Xususan nutqning hissiy ta’sirini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular gapga iliqlik, ehtirom, samimiyat yoki kinoya kabi turli hissiy ranglar qo‘shadi. Masalan:

“Qizaloq” – mehribonlikni bildiradi.

“Yigitvoy” – yaqinlik yoki hazil ohangida qo‘llaniladi.

“Do‘stjon” – samimiy do‘stlikni ifodalaydi.

Kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari nutq boyligini oshirish, ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, bolalar nutqini shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, dialektlarni saqlash va badiiy nutqni ta’sirchan qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Ular nafaqat til taraqqiyotiga, balki insonlar o‘rtasidagi



muloqot sifati va madaniyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois kichraytirish-erkalash shakllari o‘zbek tilining muhim unsurlaridan biri bo‘lib, uning tabiiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили, -Т., 2010, 56-б.
- 2.Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma’naviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent -1995.
- 3.G‘. Abdurahmonov. “O‘zbek tilida kichraytirish shakllari va ularning funksional xususiyatlari”.
- 4.O. Usmonov. “Til va nutq pragmatikasi”.
- 5.V.N. Vinogradova. “Семантические особенности диминутивов в русском языке”.
6. Bahlo N. Merkmale von Jugendsprache // Jugendsprache / N. Bahlo et al. – Stuttgart: JB Metzler, 2019. – S. 55-77.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili, darslik – Т., „Universitet“.,2006.
8. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд,- Т.,2012, 345-б.



## MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
<b>II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibrid modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
<b>III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
<b>V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774